

“Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakultetida “ARTEL - kompaniyasi ishlab chiqarayotgan mahsulotlari, texnologiyalari, mutaxassislariga talablar” mavzusida muammoli ma‘ruza o‘tkazildi.

2018 yil 20 dekabr kuni TIQXMMI 8-ma‘ruzalar zalida, “Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish”, “Elektr energetikasi” va TJICHAB ta‘lim yo‘nalishlari 3 va 4 bosqich talabalari ishtirokida “ARTEL kompaniyasi ishlab chiqarayotgan mahsulotlari, texnologiyalari, mutaxassislariga talablar” mavzusida ma‘ruza o‘tkazildi. Artel kompaniyasi O‘rta Osiyodagi eng katta va yagona maishiy texnika ishlab chiqarish tizimidir. Kompaniya O‘zbekistonda tashkil topgan bo‘lib, yirik maishiy texnika va elektron vositalar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Kompaniya o‘z faoliyatini 2011 yilda boshlab, sifatli, ishonchli va qulay mahsulotlari bilan O‘zbekistonda tanilib ulgurdi. Bugungi kunda kompaniya maishiy texnikalarning 10 dan ortiq turini ishlab chiqarmoqda: kondensiyon, changyutgich, mikroto‘lqinli pech, gaz plitalari, elektr plitalari va gazu elektr bilan ishlaydigan qo‘shma plitalar, oshxona texnikalari, kichik elektr pechlari, televizorlar, muzlatkichlar, telefon va elektr suv isitgichlar. Artel kompaniyasining zavodlariga dunyoning yetakchi korxonalarini uskunalari o‘rnatilgan. Bundan tashqari, kompaniyada mahsulotlar sifatini muntazam ravishda tekshirib turish uchun laboratoriyalar ham ishlaydi. Zavodda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlarni saqlash uchun Artel kompaniyasi o‘zining 50000 kvadrat metrga teng maxsus maydoniga ega. Bu maydoning asosiy vazifasi mahsulotlarni qabul qilish, saqlash va kompaniyaning 5 baza Artel firmaviy magazinlarga butun O‘zbekiston bo‘ylab yetkazib berishdir.

Bugungi kunda Artelning maishiy texnikalari Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston, Tojikiston, Turkmaniston, Rossiya (Maxachkala), Ukraina, Ozarbayjon va Gruziya davlatlariga chiqarilmoqda. Hozirda Artel kompaniyasining mahsulotlarini Yevropaga, Rossiyaning ba‘zi shaharlari va Pokistonga chiqarish masalasida muzokaralar olib borilmoqda. Kompaniyaning dovrug‘i tez sur‘atda bundan ham kengroq doirada tarqalmoqda. Avvalo ta‘kidlab o‘tish lozimki, biz har doim hamkorlar tanlashga juda katta e‘tibor beramiz. Chunki ishonchli hamkorlar bu bizning muayyan imidjimiz shakllanishi va uzoq muddatli hamda ustuvor aloqalar kafolatidir. Biz o‘z sohasida katta muvaffaqiyat qozonganlar bilan hamkorlik qilamiz. Biz hamkorlik qilayotgan kompaniyalar maishiy texnika bozorida kamida 20 yillik tajribaga ega, o‘z navbatida ustuvor va professional darajadadir.

Bizning bunday sifatli va ayni paytda nisbatan arzon mahsulotlar ishlab chiqarishga erishishimizga ishlab chiqarishdagi chiqimlarni ixchamlashtirish sabab bo‘ldi. Shirkat faoliyati davomida to‘plagan ish tajribasi mahsulotlarning ba‘zi qismlarini mahalliy xom ashyodan tayyorlash imkoniyatini yaratdi va bu o‘z o‘rnida tayyor maishiy texnikalarimiz narxi pasayishiga xizmat qildi. Bizning xorijiy hamkorlarimizda mahsulotlarimizga kafolat berish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Mazkur tadbirida “Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakulteti professor-o‘qituvchilari ishtirok etishdi.



**“Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakulteti Ma‘naviyat-ma‘rifat ishlari bo‘yicha
dekan muovini Sh.O.Berdiyev axboroti**

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov